

O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MATN VA RASMLARNING O'RNI.

Rahimova Gulbahor

Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

Ne'matova Hulkar

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni yanada takomillashtirish uchun matn va rasmlar orqali o'qitish tizimi hamda bu tizim orqali bolada badiiy va so'zlashuv uslubi, kreativ fikrlash qobiliyatining shakllanishi xususida fikr bildirilgan.

Kalit so'z: matn, rasm, kreativlik, she'r, hikoya, ertak.

РОЛЬ ТЕКСТА И ИЗОБРАЖЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ В ОБУЧЕНИИ ГРАМОТНОСТИ.

Аннотация: В данной статье рассматривается система обучения через текст и картинки для дальнейшего совершенствования знаний учащихся начальных классов, а также развития у ребенка художественно-разговорного стиля, способности мыслить творчески.

Ключевые слова: текст, картина, творчество, стихотворение, рассказ, сказка.

THE RULE OF TEXT AND PICTURES IN THE FORMATION OF STUDENTS CREATIVE ABILITIES IN LITERACY TEACHING.

Annotation: This article discusses the system of teaching through text and pictures to further improve the knowledge of primary school students, as well as the development of the child's artistic and conversational style, the ability to think creatively.

Keywords: text, picture, creativity, poem, story, fairy tale.

Mamlakatimizda yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashi va o'z kelajagini o'zi qurishda badiiy adabiyot hamda ona tilini o'rganishning ahamiyati katta. Ayniqsa, bu borada bugungi kunda boshlang'ich sinf darsliklarida, o'quvchilarga matn, rasm orqali bilim berish va uni o'qitish tizimi yanada takomillashib, bolada ijodkorlik, o'z fikriga ega bo'lish, urf-odatlariga hurmat bilan qarash, nutq madaniyatini shakllantirishga yordam bermoqda. Chunki matn orqali bola yuqori sinflarda o'tiladigan mavzularning boshlang'ich tushunchalarini bilib

oladilar. Badiiy asar matni ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1) Tanlab o'qish-bunda o'quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o'qiydi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog'lanishni belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o'qilgan matnga o'z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo'lishi mumkin. Masalan: 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi (8-bet) «Chumolining jasorati» hikoyasidan chumolining Vatanni asrash lozimligi haqidagi so'zlar mavjud qismini topib o'qing kabi topshiriqlar berilishi lozim. Tanlab o'qishning murakkabroq turlari matndan sabab-natija munosabati bilan bog'langan dalillarni taqqoslashni umumlashtirishni talab qiladigan o'rinlarni topib o'qish hisoblanadi. 2-sinf darsligidagi (12-bet) «Nobel olaman» hikoyasi yuzasidan topshiriq quyidagicha bo'lishi: -Muhammad Haydarov katta bo'lganida qanday ishlar qilmoqchi? SHu o'rinni topib o'qing. -Aytingchi, u o'z maqsadiga erishish uchun qaysi fanlardan yaxshi o'qishi kerak? SHu o'rinni topib o'qing. Bu savollar orqali o'quvchi o'zi fikrlagan holda yoshlikdan inson o'z oldiga katta maqsadlar qo'yishi va bu maqsadga erishish fanlardan a'lo baholarga o'qish kerakligini bilib oladilar.

2) O'quvchilarning berilgan savol va topshiriqlariga so'zlari bilan javob berishi. Bunda savollar asosan o'quvchilarda o'qiganlari yuzasidan muhokama yuritish asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholashga, mustaqil fikrlashga undashi lozim. Abdulla Po'latovning «Vaqt qadri» (1-sinf) (20-bet) she'ri asosida -Vaqt nima?, -Boqi o'ynashga ham, bobosi aytgan ishni qilishga ham vaqt topsa bo'larmidi?, -Nega vaqtni oltinga o'xshatamiz? kabi savol-topshiriqlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi va bolani o'ylashga, fikrlashga undaydi.

3) O'quvchilarni savol tuzishga o'rgatish. Bu matn ustida ishlashda yaxshi natija beradi. Metodist olimlarning fikricha, to'g'ri berilgan savolda yarim javob tayyor bo'ladi. O'quvchilar matni ongli o'zlashtira olsalargina, matn yuzasidan savol bera oladilar. O'quvchilarga savol tuzishni o'rgatish 2-sinf dan boshlash maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarni ongli ravishda savol tuzishga o'rgatish uchun o'qituvchi matnga o'zi tuzgan yoki kitobda berilgan savollarni tahlil qiladi. Tahlil uchun „Nega bu savol qo'yilgan?“, „Unda kim yoki nima haqida gap boradi?“, „Savol ko'proq qaysi so'zlar bilan boshlandi?“ kabi savollarni ishlatadi va matndan foydalangan holda bu savollarga javob berishni o'rgatadi. Barchamizga ma'lumki, savod o'rgatish darslarida matnlar „Osondan qiyinga“ tamoyili asosida 2-3 ta gap, tasvir yoki syujet asosidagi rasm bilan beriladi. O'quvchilar matni o'zlashtirib olishlari, tasavvur qilishlari uchun rasmlarning ahamiyati juda katta. Chunki ular ba'zi o'rinlarda eshitganlaridan ko'ra ko'rganlarini ko'proq esda saqlab qoladilar. Hali avtomatik o'qish ko'nikmasiga ega bo'lmaganliklari uchun ham bu davrda rasmi matnlarning o'rnini beqiyosdir. Boshlang'ich sinflarda o'qilgan badiiy va ilmiy ommabop asarlar ustida

ishlashning asosiy usullaridan biri asar matnini tasvirlash hisoblanadi. Har bir asar matnida hozirgi kunda tabiat manzarasi va qahramonlarning ,voqea va hodisalarning tasviri yozuvchi tomonidan asar syujeti rivojlanishi berilib boriladi. Bundan tashqari rasmlar orqali gap, matn, ertak tuzishlari ham mumkin va bu ularning nutqini, tafakkurini rivojlanishiga yordam beradi. Misol tariqasida 1-sinf kitobi (33-bet) „G’alati ziyofat” rasmi ertagi orqali o’zlari ertak tuzadilar. **Ertak:** Bir o’rmonda qizg’anchiq ola quyon yashagan ekan. Ola quyonning bir yomon odati uning juda qizg’anchiqligi edi. U o’rtoqlari- tipratikon, yumronqoziq bilan birga yemish izlagani chiqishsa, yo’ldagi turli-tuman qo’ziqorin, karam, sabzi kabi yemishlarni o’zlari uchun terishar ekan. Uylariga tarqalish paytida esa, yig’gan yemishlarini teng taqsimlar ekan. Lekin quyon do’stlaridan chaqqon bo’lganligi sababli ulardan ko’proq sabzavot terar ekan-u ,qizg’anchiqligi sababli ular bilan bo’lishmas ekan. Do’stlari uning bu odatini bilsada, quyondan unchalik xafa bo’lmas ekan. Negaki oz bo’lsa ham, sabzavot terishganiga qanoatlanishardi. Ular o’sha kuni turli xil taomlar pishirib, uylariga bir-birini mehmonga chaqirishar ekan. Quyon ham ular pishirgan mazali taomlardan tanavul qilar ediyu, lekin qizg’anchiqligi uchun o’rtoqlarini mehmonga taklif qilmas edi. Bir kuni o’rtoqlari o’rmondan birorta ham sabzavot topa olmay uylariga tarqalishdi. Quyonning uyi yonidan o’tayotgan tipratikon shirin sho’rva hidini sezibdi. Tipratikon kirsammikan deb o’yladi? U bugun sabzavot topolmay xomush tortgan do’sti yumronqoziqni ham chaqirgisi keldi va uni ham o’zi bilan ola quyonning uyiga boshlab bordi. Yumronqoziq ham mehmonga borishdan g’oyat xursand bo’ldi. Do’stlari ola quyonning eshigini taqillatar ekan, quyon bor xunuk ovozi bilan „kim” deb baqirdi. Do’stlari hayratlanib, eshik oldida biroz turib qoldi. Ola quyon do’stlarini ko’rib, zo’rg’a uyiga taklif qildi. Quyon sho’rvani qizg’anib, jahl bilan o’rtoqlari oldiga qo’ydi. O’zi esa oshxonadagi pashshalarga baqirish bilan ovora edi. Mehmonlar do’stidan xafa bo’lib uylariga ravona bo’lishdi. Quyon kelib qarasa, mehmonlar sho’rvaga qo’l ham urishmagan ekan. Ola quyon ilk marta qizg’anchiqligidan chunonam uyalibdi. Chunki do’stlari quyonni doimo xushmuomalalik bilan kutib olar ekan. Do’stlari undan hech narsani ayamasligi va qizg’anchiqligini bilishsa ham uni do’st deb, bu aybiga ko’z yumishganini endi tushundi. Quyon kech bo’lsa ham xatosini tushindi va do’stlaridan kechirim so’rab, uyiga mehmonga taklif qildi. O’rtoqlari quyonning uzurini qabul qilib, mehmon bo’lishdi. Ola quyon o’rtoqlarini chunon yaxshi mehmon qildiki, shundan buyon u butkul qizg’anchiqlik kabi yomon illatdan voz kechdi. Xalqimiz aytganidek: „Baxilning bog’i ko’karmas”, ya’ni baxil, qizg’anchiq inson-hayotda hech qanday o’rin topa olmasligi bejiz emas.

O'qituvchi bolalarning tuzgan ertaklarida: quyoning mehmonlarga qo'pollik qilgani sababi va quyoning xarakteriga o'xshagan tengdoshlaringizni ko'rganmisiz?, „Qizg'anchiq” so'ziga yaqin ma'noli so'zlarni bilasizmi?, Mehmonni qanday kutib olish kerak deb o'ylaysiz?kabi savollar beradi va bizning o'zbek xalqi naqadar mehmondo'st xalq ekanligini ta'kidlab o'tib,ertak yanada mustahkamlanadi.

Ko'rinib turibdiki,matn va rasmalar orqali ishlash boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsliklarni yaxshi o'zlashtirishiga yordam berib qolmasdan balki bolada o'zining mustaqil fikrlash,nutq o'stirish,tasavvur,badiiy va so'zlashuv uslubini to'g'ri qo'llay olish hamda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1)K.Qosimova „Ona tili o'qitish metodikasi”kitobi Toshkent „Nosir”nashriyoti
- 2),„Ona tili va o'qish savodxonligi” 1-sinf 2-qism (20-33-betlar)Toshkent:2021
- 3),„Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf 1-qism(8-12-betlar)Toshkent:2021
- 4)B.To'xliyev,M.Shamsiyeva,T.Ziyadova. „O'zbek tili o'qitish metodikasi” Toshkent „Yangi asr avlodi” nashriyoti.2006
- 5)A.G'ulomov,M.Qodirov „Ona tili o'qitish metodikasi” Toshkent. „Universitet” nashriyoti.2001-y.